

t/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
2	Qurg'oqchilik va sho'rlangan yerlarga mos yuqori hosilli C-4 guruhiga mansub ozuqa ekinlari seleksiyasi va birlamchi urug'chiligi tizimini yo'lga qo'yish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy loyiha Ilmiy tadqiqot natijalari: -sorga, Afrika qo'nog'i, makkajo'xorining mavjud mahalliy va xorijiy kolleksiyalari fenomika sohasi ilmiy yutuqlaridan foydalanib fentipik va genotipik jihatdan tavsiflanadi hamda ma'lumotlar bazasi yaratiladi. -sho'rlanishga va qurg'oqchilikka bardoshli bo'lgan S4 tipidagi ozuqa ekinlarining kamida 3 ta yangi navi yoki geterozisli duragayi yaratiladi va Intellektual mulk agentligiga patent olish uchun talabnoma topshiriladi. -seleksiya ishlari uchun transpiratsiya koeffitsiyenti past va fotosintez faolligi yuqori bo'lgan S4 o'simliklarining kamida 50 ta namunadan iborat ishchi kolleksiyasi (inbred liniyalari) shakllantiriladi. -suv taqchil bo'lgan ekstremal issiqlik sharoitida ham gektaridan kamida 500–600 sentner ko'k massa yoki 150–180 sentner sifatli quruq xashak hosili olinishi yo'nalishida seleksion tadqiqotlar natijasida chorvani yashil ozuqa bilan ta'minlash imkoni yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi yoki unga tegishli tashkilotlardan sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsifyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.